Sarimsoqov Toshmuhammad Aliyevich

Fizika-matematika fanlari doktori, matematik-olim, Mehnat Qahramoni (1990-y.)

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi asoschilaridan biri, fan va ta’lim faollaridan biri, jamoat arbobi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1943-y.).

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti (1947 – 1952-yy.)

1915-yil 4-sentabrda Andijon viloyatining Shahrixon qishlog‘ida tavallud topgan.

1995- yil 18-dekabrda vafot etgan. Toshkent shahrida dafn etilgan.

O‘ZSSRda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi (1960-y.)

Fan va texnika sohasida SSSR Davlat mukofoti laureati (1948-y.)

Beruniy nomidagi O‘zSSR Davlat mukofoti laureati (1967-y.)

O‘rta Osiyo davlat universitetini tamomlagan (O‘ODU, 1936-y., hozirgi O‘zMU).

Mehnat faoliyati davomida O‘ODUda assistent, dotsent, kafedra mudiri, O‘ODU va ToshDU rektori, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti va prezidenti, O‘zSSR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri, O‘zR FA prezidenti maslahatchisi bo‘lib va O‘zbekistondagi boshqa mas’uliyatli boshqaruv organlari lavozimlarida ishlagan.

170 dan ortiq ilmiy ish, shuningdek 8 ta monografiya muallifi.

10 fan doktori va 50 ta fan nomzodini tayyorlagan.

2002-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan (vafotidan so‘ng).